**Sana:** ________ **Sinf: 10**

**Fan: Ona tili**

**Mavzu:** Qo'shma gaplar uslubiyati

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy –** o'quvchilarga qo'shma gaplar uslubiyati mavzusi haqida ma'lumot berish

**Tarbiyaviy –** komil insonni tarbiyalash

**Rivojlantiruvchi –** o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish

**Kompetensiya** – fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish

**Dars turi –** savol-javob, bahs-munozara

**Darsning jihozi –** 10-sinf ona tili darsligi, tarqatma materiallar

**Dars bosqichlari jadvali**

| | |
|---|---|
| **Tashkiliy qism** | **5 daqiqa** |
| **Uy vazifasini tekshirish** | **10 daqiqa** |
| **Yangi mavzu bayoni** | **10 daqiqa** |
| **Mavzuni mustahkamlash** | **15 daqiqa** |
| **O'quvchilarni rag'batlantirish** | **3 daqiqa** |
| **Uyga vazifa** | **2 daqiqa** |

**DARSNING BORISHI**

**Tashkiliy qism –** o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchi o'quvchi orqali sinf davomatini aniqlayman.

**Uy vazifasini tekshirish –** 4-topshiriqda o'quvchilar shaxs-son, zamon va bo'lishsizlik qo'shimchalarining qanday uslubiy vazifalarda qo'llanayotganini aniqlashlari kerak.

**Yangi mavzu bayoni:** o'quvchilarga yangi mazuni tushuntirishdan oldin ularni diqqatini bitta nuqtaga jalb qilaman. Yangi mavzuni e'lon qilib, sinf taxtasiga yozaman. "Qo'shma gaplar uslubiyati".

Topshiriqda o'quvchilar berilgan qo'shma gaplarda qismlar o'rtasidagi sabab munosabatining aniq, ochiq va mantiqan ifodalanishini qiyoslaydilar.

*Qo'shma gaplar uni tashkil etadigan qismlar orasidagi mazmuniymunosabatlarni ifodalaydi, shu tariqa real olamdagi ikki voqea-hodisa o'rtasidagi aloqadorlikni, xususan, sabab-oqibat, maqsad, shart, to'siqsizlik, payt kabi bir qancha munosabatlarni aks ettiradi. Qo'shmagap qismlarining birikishida xilma-xil bog'lovchi vositalar ishtirok etishiyoki ishtirok etmasligi mumkin. Bu bog'lovchi vositalarning ishtirokigako'ra tegishh mazmun ifodasida turli farq va o'ziga xosliklar yuzaga keladi, bir-biri bilan ma'nodosh sintaktik birliklar paydo bo'ladi. Ana shular hisobga olinsa, qo'shma gaplarning qanchalik katta uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Qo'shma gaplarning bog'lovchili va bog'lovchisiz turlari farqlanadi. Ularning bog'lovchili turida voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabat aniq, ochiq va qabariq ifodalanadi, bog'lovchisiz turida esa bunday emas. Masalan, quyidagi misolda sabab-oqibat munosabatining ifodalanishini qiyoslang: Til millatning bebaho mulki, shuning uchun uni hamisha*

NAMUNA

*muhofaza qilmoq lozim (sabab-oqibat munosabati shaklan ochiq aks etgan) — Til millatning bebaho mulki: uni hamisha muhofaza qilmoq lozim (sabab-oqibat munosabati shaklan aks etmagan). So'zlashuv nutqida uzun va tarkibi murakkab jumlalarni tuzish imkoniyati chegaralangan, bu uslub qo'llanadigan nutqiy sharoit ham bunga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun so'zlashuv uslubida qo'shma gaplarning, asosan, bog'lovchisiz turi ishlatiladi. Ilmiy va rasmiy uslublarda esa mazmunni to'liq va aniq ifodalash ehtiyoji bilan qo'shma gaplarning bog'lovchili turi afzal ko'riladi. Badiiy va publitsistik uslublarda esa xilma-xil ma'no nozikliklari, uslubiy bo'yoq, tasviriylik zaruriyatiga qarab, qo'shma gaplarning har ikki turi qo'llanaveradi.*

**Mavzuni mustahkamlash:** 101-mashqda o’quvchilar gaplarni o'qib, ularda ifodalangan voqea-hodisalar o'rtasidagi mazmuniy munosabatni izohlaydilar.

102-mashq shartiga ko’ra o’quvchilar qo'shma gaplar o'rtasidagi mazmuniy mutanosiblikka diqqat qiladilar, ular nimasiga ko'ra farqlanayotganini tushuntiradilar.

103-mashqda o’quvchilar bog'lovchisiz qo'shma gaplarni bog'lovchili qo'shma gaplarga aylantirib, mazmuniy munosabatning aniq ifodalanishiga e'tibor beradilar.

104-mashqda o’quvchilar berilgan qo'shma gaplarning mazmunini saqlagan holda boshqa turdagi qo'shma gaplarga aylantiriadilar. Hamda mazmuniy munosabatlarning ifodalanishiga diqqat qiladilar.

105-mashqda o’quvchilar bo'lsa, esa so'zlari bilan bog'langan qo'shma gaplarni bog'lovchisiz qo'shma gaplarga aylantiradilar va ularning mazmunida qanday uslubiy o'ziga xosliklar yuz berganini tushuntiradilar.

Mashqlar bajarib bo’lingach, o’quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar.

1. Qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'ladimi?
2. Deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar qanday mazmunni ifodalab kelishi mumkin?
3. Zidlik, payt, sabab-oqibat mazmunh qo'shma gaplar tuzing. Bog'lovchi vositaning o'zgarishi bilan gap mazmunida yuz bergan uslubiy o'ziga xosliklarni ayting.
4. Qo'shma gaplar ko'proq qaysi nutqiy uslublarda qo'llanadi?
5. So'zlashuv uslubida qo'slima gaplarning qo'llanish darajasi haqida gapiring.
6. Ilmiy va rasmiy uslublarda qo'shma gaplarning qaysi turi ko'proq ishlatiladi? Bu bilan bog'liq sabablar haqida so'zlang.

**Rag’batlantish:** Darsga faol qatnashgan o’quvchilar baholanadi.

**Uy vazifasi:** 106-mashqda o’quvchilar deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplarni soda gaplarga aylantirishlari va ularning mazmunida qanday uslubiy o'ziga xosliklar yuz berganini tushuntirishlari kerak.

***O’IBDO’ imzosi:*** ____________

NAMUNA

**5-6-7-8-9-10-sinflar uchun ona tili va adabiyot fanidan kompetensiya asosida tayyorlangan namunaviy dars ishlanmalar jamlanmasini yuklab olish uchun quyidagi telefon raqami bilan bog'laning...**

**Telegram orqali bog’laning:**

**+99894-618-00-87**

NAMUNA